

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

PSIXOLOGIYA FANINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

Dadaqo'ziyeva Munosibxon Yo'ldashevna 49 maktab

Malikova Xurshidaxon Yusubjonovna O'zbekiston tumani 20-maktab

Po'latova Saodat Abduhalilovna 31-maktab

Aliyeva Dildoraxon Sul-tonbekovna 38-maktab

Annotatsiya:

Ushbu maqolada psixologiya fanining fan sifatida shakllanishi, hozirgi zamon psixologiyasi, psixologiyaning insonlarga ta'siri, psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqida atroflicha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixik jarayon, o'qitish muammolari, psixologik maslahat

Kirish

Psixologiya fan sifatida rivojlanib, unda olimlar qarashlari takomillashib borgan sari, ruhiy kechinmalar tabiatini negizidan, ich-ichidan o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. XX asrning boshlarida paydo bo'lgan psixoanaliz yo'nalishi fandagi aynan shu kamchilikni bartaraf qilish niyatida paydo bo'ldi.

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan vaqt ichida juda ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarini o'z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yozildi. Biroq, bu bilan fan o'zining jamiyat oldidagi vazifalarini to'laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo'lmadi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko'rsatgan hamma olimlar ko'proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Binobarin, o'quvchilarning yetakchi faoliyati o'qish sanaladi. O'quv faoliyati mobaynida mutaxassislarni tayyorlashning asosiy maqsadlariga erishiladi. O'qish faoliyati o'quvchining psixik jarayonlarini xususiyatlari shakllanishiga kasbiy asosiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallashga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qish ijodga aylansa, o'quvchilarning hissiy sohasiga ijobiy ta'sir qiladi, diqqat va xotirasini oshiradi, qoniqish hissini yuzaga keltiradi, faoliyatga nisbatan qiziqishi ortadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bugungi zamon psixologiya fani sohalari bo'yicha materiallarni umumlashtirishning ko'rsatishicha, psixologiya o'qitish uslubiyati nuqtai nazaridan ta'limda ko'rgazmalilik bir nechta ko'rinishga ajratiladi. Bunda jinsiy diformizmga va shaxslarga gender munosabatga alohida ahamiyat berish o'qitish samaradorligini oshirishga puxta zamin tayyorlaydi.

Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko'maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda muhim o`rin tutadi. Psixologiyaning butun tarixi vaqtida idealizm va materializm orasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya mazmunini turli xil tushunadi, insondagi psixik va fiziologik hodisalarni o`zaro munosabatlarini tushunishda, shuningdek psixologiya predmetini tushunishda ifodalangan.

Natijalar:

Pedagogika maktablarda kasbiy xislatlarni rivojlantirish ahamiyatiga molik o'quv predmeti sifatida psixologiya kursi alohida nufuzga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy qobiliyatlari va mahoratini tarkib toptirishda hal etuvchi rol o'ynamoqda. Shuning uchun psixologiya kurslarini yuqori saviyada, faol, yangi, samarador metodlar yordamida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi, sababi o'qitish samaradorligini oshirmasdan turib, bilimlar sifati to'g'risida fikr yuritish mumkin emas.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiya shakllanishi natijasida insonning individual-psixologik farqlari, ijtimoiy-tarixiy tajribalar ta'siri hamda boshqa odamlar o'rtasidagi muloqot, muomala ta'siri borligini, shuningdek, yana bir qancha faktorlarni hisobga olgan holda shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim yordamida o'qitish va tarbiyalash yotadi.

Muhokama:

Amaliy psixolog statusiga ega bo'lishni istagan insonni bir qator talablar qo'yiladi ularning birinchisi u oliy ma'lumotli psixolog bo'lishi darkor. Bunday diplom oliy o'quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan xabardor bo'lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. Amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan xabardor bo'lishi darkor.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Amaliy psixolog albatta barcha sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo‘ladi va shu bilan birga u barchaga hamdard bo‘la oladigan inson bo‘lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotgan albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta‘minlashi kerak bo‘ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlash mobaynida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab etiladi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytilish mumkinki, bugungi kunda psixologiya sohasining kengayishi, bu fan berayotgan bilimlardan ijtimoiy turmushda, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, ta‘lim va tarbiya jarayonida foydalanish ehtiyojining ortishi fanimizning mavqei, nufuzi yanada oshayotganligidan dalolat beradi. Oliy va orta maxsus o‘quv yurtlarida psixologiya kursi o‘qitilishining yo‘lga qo‘yilishi uning tatbiqiy jihatlarini kengaytirishni taqozo etilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006
3. F.I. Haydarov. N.I. Xalilova Psixologiya fanlarini oqitish metodikasi. Toshkent 2006
4. Akromov M.P., Botirov B.M., Xalilova N.I., Umumiy psixologiya. T.,2021.

